
Qatag'on qurbonlari xonadonlariga tashrif buyurildi

31 avgust - Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni. Ushbu sana hamda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi bayrami munosabati bilan Farg'ona shahrilik Qatag'on qurbonlari yodga olindi.

1937 yilda qatag'on qurboni bo'lgan "Shodlik" mahallasilik Qodirmirzo Jahonov, yormozorlik Mo'ydinbek Dodhobekovlarning avlodlari bilan shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, faol nuroniylar uchrashdilar.

Mehmonlar oila a'zolari tomonidan afsus bilan yod olingan tarixning achchiq qismatini tingladilar. Qatag'on qurbonlarining avlodlari ota-onalardan eshitganlarini eslashib, bobolarining surgun qilinib, otilganidan so'ng ham qolgan oila a'zolari xo'rlangani, barcha mol-mulklari musodara qilingani, turmush kechirishlari yomonlashganini yod olishdi.

Shuningdek, suhbat davomida bugungi tinch, osoyishta zamonga shukronalik keltirildi. O'tganlar xotiralanib, qur'on tilovat qilindi. Oila uchun oziq-ovqat mahsulotlari berildi.

2023-09-07 08:58:58